O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 311:62/69

YO‘LDOSHEV NOZIMBEK MA’RUFJON O‘G‘LI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT MAHSULOTLARI EKSPORTINI STATISTIK TAHLILI

70410801 – “Statistika” mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: **i.f.n. prof. Ayubjanov A.H.**

Toshkent – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika" kafedrasida bajarilgan

Ilmiy rahbar **i.f.n. prof. Ayubjanov A.H**

Kafedra mudiri **i.f.f.d., prof. Utanov B.Q.**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani **i.f.d., prof. J.I.Karimqulo**

Men, Yo'ldoshev Kotimbek Ma'rufjon o'g'li (F.I.Sh) ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

"IQTISODIY STATISTIKA" KAFEDRASI

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHLARINING DASTLABKI HIMOYA BAYONNOMASI

2025 yil 15 aprel **Toshkent shahri**

Raisi: Prof. Utanov Bunyod Quvondiqovich
Kotibi: Dots. Raxmataliev Muzaffar Eshdavlatovich

A`zolar: Tashmatov Zayirkul Xudayberganovich, Ayubjonov Abbos Hosilovich, Nabixo'jaev Abbos Abduppataxovich, Akbarova Barno Shuxratovna, Sayfullaev Siddik Nosirovich

KUN TARTIBI:

70410801 - Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi 2-kurs, MST-01 guruhi va S-1/23 magistrlarining magistrlik dissertatsiya ishlarini monitoring qilish bo'yicha magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasi

Rais: Kafedraning magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasida professor-o`qituvchilar va magistrantlar qatnashmoqda. Ruxsatingiz bilan "Iqtisodiy statistika" kafedrasining magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasini ochiq deb e'lon qilaman.

Bugungi masala 70410701- Statistika (Tarmoqlar va sohalar bo`yicha) mutaxassisligi bo`yicha MST-01 guruhi magistranti Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'lining "Milliy va xalqaro mehnat bozorining statistik tahlili (O'zbekiston va Qozog'iston respublikalari misolida)", Yo'ldoshev Nozimbek Ma'rufjon o'g'lining "O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotlari eksportini statistik tadqiq etish", Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'lining "O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorini statistik tahlili" va Jurayev Shohruh Moyli o'g'lining "O'zbekiston chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni statistik tadqiqi" hamda S-1/23 guruhi magistranti Ochilov Ozodbek Odil o'g'lining "Bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini statistik tahlili (Respublika tijorat banklari misolida)" mavzusida magistr akademik darajasini olish uchun olib borilgan magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasining muhokamasi.

Rais: Muhokamani o`tkazish haqida qanday takliflar bor? Kun tartibiga qo`yilgan masala bo`yicha avvalo, magistrlarning ma'ruzasini eshitib, keyin muhokamaga o`tsak. Demak, ma'ruza uchun so`z magistr Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'liga beriladi.

Eshitildi: Magistr Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'li: Hurmatli seminar

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida O‘zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotlari eksportining statistik tahlili va rivojlanish istiqbollari chuqur o‘rganilgan. Ishda O‘zbekiston iqtisodiyotining eksport salohiyati, ayniqsa, sanoat mahsulotlari eksportining hajmi, tarkibi, raqobatbardoshligi va global bozorlardagi holati statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Dissertatsiyada chiziqli regressiya, ARIMA va Holt-Winters kabi prognozlash modellari qo‘llanilib, eksport hajmining istiqboldagi o‘zgarishlari prognoz qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ishning natijalari amaliy jihatdan eksport strategiyalarini ishlab chiqishda, davlat dasturlarini shakllantirishda va oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: sanoat mahsulotlari, eksport, statistik tahlil, prognozlash, eksport salohiyati, ARIMA, regressiya modeli.

ANNOTATION

This master’s dissertation investigates the statistical analysis and development prospects of industrial product exports of the Republic of Uzbekistan. The study focuses on Uzbekistan’s export potential, particularly the volume, structure, competitiveness, and global positioning of industrial exports, based on statistical data. Forecasting models such as linear regression, ARIMA, and Holt-Winters were applied to predict future export trends. Based on the research results, practical and scientific recommendations have been developed to enhance the country’s industrial export capacity. The findings of the study can be utilized in the development of export strategies, government programs, and in academic teaching processes at higher educational institutions.

Keywords: industrial products, export, statistical analysis, forecasting, export potential, ARIMA, regression model.

MUNDARIJA

KIRISH **3**

I BOB. SANOAT EKSPORTI – STATISTIK O‘RGANISH OBYEKTI **9**

1.1 Sanoat mahsulotlari eksportining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni 9

1.2 Sanoat mahsulotlari eksportini shakllantiruvchi omillar 14

1.3 Eksportni statistik tahlil qilish usullari 24

1- bob bo‘yicha xulosalar 32

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT MAHSULOTLARI EKSPORTINI STATISTIK O‘RGANISH **34**

2.1 Asosiy sanoat mahsulotlari eksportini statistikasini baholash 34

2.2 Yengil sanoat mahsulotlari eksportining statistik tahlili 47

2.3 Eksportning raqobatbardoshligi va global bozorlarni qiyosiy statistik baholash 58

2- bob bo‘yicha xulosalar 66

III BOB. O‘ZBEKISTONDA SANOAT MAHSULOTLARI EKSPORTINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA PROGNOZI **68**

3.1 O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirish yo‘nalishlari ... 68

3.2 Sanoat mahsulotlari eksportini prognozlash modellari 74

3.3 O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari eksportini prognozlash 82

3- bob bo‘yicha xulosa 87

XULOSA **89**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI **92**

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O‘zbekistonda, keyingi yillarda tashqi savdo sohasining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilish, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish va turli xizmatlar ko‘rsatishga ulkan hissasini qo‘shmoqda. Mamlakatimizda eksport salohiyatini oshirish, milliy tovar va xizmatlar uchun eksport yo‘nalishlarini kengaytirish va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirish, eksportchilarni qo‘llab-quvvatlashga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan muntazam ravishda e’tibor qaratilmoqda. Ushbu chora- tadbirlar tufayli tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, investitsiya loyihalari tashabbuskorlari va eksportyorlarni amaliy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli mexanizmlar ishlab chiqildi. Bunday o‘zgarishlar qisqa muddat ichida o‘z natijalarini berdi – iqtisodiy islohotlar xorijiy mamlakatlar bilan savdo aloqalarini jadal rivojlanishiga yordam berdi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra: agar 2016-yilda tovar va xizmatlar eksporti yalpi ichki mahsulotning 15 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 31 foizga yetgan; 2017-2023-yillarda respublikaning jami eksporti 119 mlrd. dollardan ortiqni tashkil etdi, shundan 2023-yilda 24 mlrd. dollardan ortiq mahsulot eksport qilindi, bu 2016-yilga nisbatan 60 foizga ko‘pdir[1]. Shu bilan birga, mamlakatimizda eksport salohiyatini oshirish bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud: eksportning diversifikatsiya darajasi pastligi; asosan xomashyo mahsulotlarining eksport qilinishi; mahsulotni xalqaro sertifikatlash bilan bog‘liq muammolar; rivojlangan mamlakatlar bozoriga bojsiz kirish imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmaslik.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida, davlatimiz tomonidan yangi strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab olindi. Xususan, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

[1] World Bank Open Data. -URL: https://data.worldbank.org/indicator